

FE'L – TERMINLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

Pirmatova Dilorom Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fe'l-terminlarning yasalish xususiyatlari hamda o'ziga xosliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *fe'l-termin, ot-termin, affiks, sifat-termin.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об особенностях и особенностях образования глаголов – терминов.

Ключевые слова: *глагол-термин, существительное-термин, прикреплять, прилагательное –термин.*

ABSTRACT

This article talks about the features and peculiarities of the formation of verb-terms.

Key words: *verb-term, noun-term, affix, adjective-term*

Terminlar, odatda, ot so'z turkumidan ifodalanadi, Bundan tashqari, fe'l, sifat hamda ravishlardan ham ifodalanishi mumkin.

Ot-terminlar yoki sifat-terminlarning yasalishi kabi fe'l terminlarning ham o'ziga xos yasalish xususiyatlari mavjud. Boshqa so'z turkumlaridan yasalgan fe'l-terminlarning miqdori ham salmoqli darajadadir.

Fe'l-termin hamda sifat-terminlarning yasalishi haqida H.Dadaboyev o'z fikr mulohazalarini bildirganlar.

Asosi ism bo‘lgan fe‘l-terminlarning yasallishida – la affiksli so‘z yasovchi model sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mazkur model quyidagi ma‘no-mazmunlarni ifodalaydi.

- a) jarayon, ish-harakat, natija kabi ma‘nolarni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi. Misollar bilan izohlasak, hisobla, shamolla, sudla, yiringla, dalilla;
- b) boshlang‘ich asosdan anglashilgan narsa-predmet , buyum bilan birga qilinadigan harakatni bildiradi. Misol uchun, tormozla, egovla, bombala, betonla , shifrla, kumushla, urug‘la ;
- c) kimnidir yoki nimanidir boshlang‘ich asosdan anglashilgan narsa-predmet , buyum, modda ta‘siriga yo‘liqtirish, duchor qilishni bildiradi. Misol uchun, lokla, sementla, sirkala, tuzla, yodla, o‘qla;
- d) dastlabki asosga belgi-xususiyat , sifat, fazilat , xossa, shakl tuzilishga ega bo‘lmoq ma‘nosini anglatadi. Misol uchun, yaxla, qurtla, muzla, gulla;
- e) boshlang‘ich asosga oid bo‘lgan xususiyat , xossa, fazilat, ko‘rinish , tuzilish, shakl haqida kimgadir yoxud nimagadir xabar berish ma‘nosini ifodalaydi. Misol uchun, aybla, dudla, safla, jazola, ko‘lla, kurtakla ;

-la affiksli so‘z yasovchi modeldan tashqari -lan affiksli so‘z yasovchi model ham fe‘l-terminlarning yasallishi uchun xizmat qiladi.

- a) ma‘lum bir narsa- buyumga egalik qilishni bildirish uchun ishlatadi. Misollar bilan izohlasak, qurollan, yaroqlan, kasallan, xastalan, qopqoqlan ..;
- b) natija ma‘no- mazmunini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Misol uchun , gazlan, tormozlan, oshlan, botqoqlan, butoqlan va h.k.
- c) ma‘lum bir jarayonni ifodalash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, surlan , sirlan, nurlan, imzolan, oksidlan, sarflan va h.k.

-la affiksidan tashqari –lash affiksi ham fe‘l-terminlarni hosil qilishda faol ishtirok etadi.

Boshlang‘ich asosdan anglashilgan xususiyat, xossa, fazilat, shakl, holat, vaziyatga ega bo‘luvchi jarayon yoki pirovard natija yoxud dastlabki asosdan

anglashilgan narsaga o‘tish jarayonini ifodalaydi.[251]; xiralash, soddalash, chetlash, o‘troqlash va h.k.

- lashtir affiksli so‘z yasovchi model o‘ta umumli qo‘shimcha hisoblanib, natija, belgi-xususiyat, shakl, vaziyat, holat nomini ifodalovchi fe‘l-terminlar yasalishiga xizmat qiladi. Misol uchun, gazlashtir, chetlashtir, chuqurlashtir, legallashtir, mashinalashtir, qalbakilashtir, ekranlashtir va h.k.

-lashtiril affiksi ham jarayon, belgi- xususiyat nomini bildiruvchi fe‘l-terminlar hosil qiladi: mashinalashtiril, maxsuslashtiril, mahalliylashtiril, kompyuterlashtiril, avtomatlashtiril, yerlashtiril, robotlashtiril, milliylashtiril ..;

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sifat-terminlarga qaraganda fe‘l-terminlarning yasaliş doirasi biroz torroq ekan, bu mening fikrim. Chunki sifat-terminlarning hosil qilinishida ko‘plab affikslar ishtirok etdi. Fe‘l-terminlarning ham o‘ziga xosliklari, xususiyatlari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi .Toshkent.2019.74-76 betlar
2. Кононов А. Н. Грамматика современново узбекского литературново языка – М-Л- 1960.
- 3.Pirmatova D. “ UZBEK TERMINOLOGY IN THE INTERPRETATION OF H.DADABOYEV “ FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCIS.INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE –B-88, 2023.